

### O‘ZBEK VA TURK MAQOLLARINING MA’NO XUSUSIYATLARI

Oynisa Xojiyeva Shabonovna  
ToshDO‘TAU tayanch doktranti  
E-mail: [niso-nur@mail.ru](mailto:niso-nur@mail.ru)  
ORCID ID: 0009-0006-9479-0606.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qardosh o‘zbek va turk maqollarining ma’no xususiyatlari tadqiq qilingan. Maqollar denotativ va konnotativ ma’no ifodalashiga ko‘ra bir necha guruhlarga ajratib tasniflangan. Har bir guruhga mansub bo‘lgan maqollarning o‘ziga xosliklari qiyoslar asosida ochiqqlangan. Keltirilgan fikrlar har ikki xalq folkloridagi misollar yordamida dalillangan.

**Kalit so‘zlar:** maqol, denotativ ma’no, konnotativ ma’no, folklor, kinoya.

**Abstract.** This article studies the semantic features of the fraternal Uzbek and Turkish proverbs. The proverbs are classified into several groups according to their denotative and connotative meaning. The peculiarities of the proverbs belonging to each group are explained on the basis of comparisons. The ideas presented are substantiated using examples from the folklore of both nations.

**Keywords:** proverb, denotative meaning, connotative meaning, folklore, irony.

Maqollar xalq og‘zaki janrlari ichida o‘zining teran mazmuni bilan ajralib turadi. Maqollarning ma‘nosi keng qamrovli bo‘lib, B. Sarimsoqov ularni ma‘nosiga ko‘ra uch guruhga ajratadi [6. 43 – 44]:

a) ko‘chma, majoziy ma‘noda qo‘llanuvchi maqollar. Bunday maqollar o‘z ma‘nosida tushunilsa, g‘aliz mazmun kelib chiqadi. Chunki ular bir butunlikda ko‘chma ma‘noda kelib, biror ibratli fikrni to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki badiiy obrazli tarzda aks ettiradi. Masalan, “Yotganga yomg‘ir yo‘qmas” [4. 32] maqolida gapdagi barcha so‘zlar ham, maqolning umumiy ma‘nosi ham polisemantik xususiyatga ega. Yomg‘ir – tabiat hodisasi. Vaqti-soati bilan yog‘adigan bo‘lsa, yer yuzidan bekor yotgan odamlarni ajratib qo‘yib, qolganlarga yog‘ishi aqlga sig‘maydigan holat. Agar maqolni o‘z ma‘nosida tushunsak, ana shunday g‘alizliklarga duch kelishimiz aniq. Aslida bu maqol bekorchi odamga tekin keladigan narsa ham yo‘qligini ta‘kidlash maqsadida ishlatiladi va bu yerda hech qanday zahmatsiz keladigan ne‘mat – yomg‘irning ham bekorchidan qochishiga ishora qilish orqali ayni nishonga urilgan. “Ro‘zg‘or – g‘or”, “Tirikchilik sherni ham tulki qilar”, “Kaptar bo‘lib tug‘ilsang, qarg‘a bo‘lib o‘lma” [4. 128, 142, 157], “Duvarin kulaği var, gözünü de unutma” (Devorning qulog‘i bor, ko‘zini ham unutma), “Kar, zararın kardeşidir” (Foyda zararining ukasidir), “Katıra “baban kim?” demişler, “dayım at” demiş” (Xachirga “otang kim?” desalar, “tog‘am – ot” derkan) [1. 248, 346, 347] kabi maqollarning hammasi ko‘chma ma‘noda qo‘llaniladi.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

b) Dennotativ ma’nosi ham, konnotativ ma’nosi ham faol bo‘lgan maqollar. Bunday maqollarni o‘z ma’nosida ham tushunish mumkin, lekin asosan, ko‘chma ma’noda ishlatiladi:

Yolg‘onchi to‘rga bir o‘tar,

Ikkinchi o‘tmas [4. 259].

Bu maqolning dennotativ ma’nosiga ko‘ra yolg‘onchi insonning yolg‘onlarga ishonib, uni bir marta uyning to‘riga o‘tqazib, izzat-ikrom ko‘rsatish mumkin. Ammo yolg‘oni fosh bo‘lgach, ikkinchi bor unga bu ehtirom ko‘rsatilmaligi oshkor. Ko‘chma ma’noda uyning to‘ridan joy olish emas, umumiy holda, yolg‘oni fosh bo‘lguncha olqishlar ichida, hurmatga sazovor bo‘lib yashasa-da, yolg‘onning umri uzoq bo‘lmaligi, bu omonat shuhrat ham oz fursatda havoga uchib ketishi tushuniladi.

Bunday maqollar har ikki xalqda ham talaygina:

Quyvon otolmaganning bolasi arslon otibdi.

Qo‘rqoq itning quyrug‘i qisiq.

Tuyada to‘g‘ri joy bo‘lmas.

Fil o‘lsa ham, tishi o‘lmaydi [4. 257, 141, 90, 291].

Dilin kemiği yok. (Tilning suyagi yo‘q)

El atına binen tez iner. (Begonaning otiga mingan tez tushadi (otdan)

Her taş baş yarmaz. (Har tosh bosh yormaydi)

Her koyun kendi bacağından asılır [ 1. 241, 257, 310, 311]. (Har qo‘y o‘z oyog‘idan osiladi)

Yuqoridagi maqollarning barchasi ham o‘z ma’nosi, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi va shunday tushunilishi mumkin.

c) faqat o‘z ma’nosida qo‘llanadigan maqollar. Bunday maqollarda hech qanday tag ma’no, kinoya, ort ma’no bo‘lmaydi. Bunday maqollar ham har ikki xalq folklorida mavjud, lekin ular ko‘pchilikni tashkil qilmaydi:

Bıçak yarası geçer, dil yarası geçmez. (Pichoq yarasi kechadi, til yarasi kechmaydi)

Bilmemek ayıp değil, öğrenmemek ayıp. (Bilmaslik ayb emas, o‘rganmaslik ayb)

Bin dost az, bir düşman çok. (Ming do‘st oz, bir dushman ko‘p)

Elçiye zeval olmaz [2. 187, 102]. (Elchiga zavol yo‘q)

Ahmoqdan so‘rama, o‘zi aytar.

Qarz, qarzni berish farz.

Ezgulikning kechi yo‘q.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Yomon ko‘rishni bilmagan

Yaxshi ko‘rishni ham bilmas [4. 157, 117, 89, 72].

d) bir qismi ko‘chma, boshqa qismi o‘z ma’nosida keluvchi maqollar

B. Sarimsoqovning tasnifiga qo‘shilgan holda, maqollarda ma’no xususiyatlarining yana bir jihatini farqladik. Unga ko‘ra, qo‘shma gap tuzilishidagi maqollarning qismlaridan biri o‘z ma’nosida, boshqa biri esa ko‘chma ma’noda kelishi mumkin:

Og‘irlikni yer ko‘tarar,

Semizlikni qo‘y [4. 233].

Bu maqolning birinchi qismi o‘z ma’nosida – har qancha og‘ir yuk bo‘lmasin, ona zamin ko‘taradi. Maqolning ikkinchi qismida esa ko‘chma ma’no orqali amal, mansab, boylikni har kim ham ko‘tarilmasligi, ba’zi odamlar bunday ne’matlardan boshi aylanib, o‘zini yo‘qotib qo‘yishi mumkinligiga ishora qilinyapti.

Ayağa deġmedik taş olmaz, başa gelmedik iş olmaz [3. 142] (Oyoqqa tegmaydigan tosh yo‘q, boshqa kelmaydigan ish yo‘q) maqolida esa birinchi qism ko‘chma ma’no ifodalaydi, ya’ni hamma tosh ham oyoqqa tegmasligi kunday ravshan. Lekin maqolning ikkinchi qismi o‘z ma’nosida bo‘lib, bu hayotda inson boshida har qanday ish tushishi mumkin.

Maqollarni lingvistik aspektda o‘rgangan olima B. Jo‘rayeva bunday maqollarni matal-matal tipidagi paremlar sirasiga kiritadi. Bunda o‘z ma’nosida kelgan komponentni matal deb baholaydi, umumiy ko‘chma ma’no ifodalab kelgan qismni esa maqol deb ta’kidlaydi [5. 24]. O‘z ma’nosidagi maqollarning matalga nisbat berilishi ancha bahsli masala. Shunday bo‘lsa ham, olimaning maqollardagi polisemiya borasida qilgan ishlari tahsinga sazovor.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, ko‘p ma’nolilik va ko‘chma ma’no ifodalash faqatgina xalq maqollariga xos xususiyat emas. Bunday o‘ziga xoslik xalq og‘zaki ijodining deyarli barcha janrlarida kuzatiladi. Masalan, topishmoqlarning barchasi ko‘chma ma’no tashisa, bolalar folklorida ham ayrim o‘zlashgan so‘zlarning [2. 135] ko‘chma ma’noda kelishini ham ko‘rishimiz mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aksoy, O. A., Atasözleri ve deyimler sözlüğü, 2. Deyimler sözlüğü, İstanbul, İnkilap Kitabevi Yayın ve Ticaret AŞ, 2021. – S.248, 346, 347.
2. Aliqulova H. Bolalar folklorining janr xususiyatlari. “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: “Anorbooks”, 2023. – 426 b.
3. Hengirmen Mehmet. Atasözleri Sözlüğü. – Ankara: Engin Yayınevi. 2011. – S. 142.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Mas’ul muharriri: Sh. Turdimov. – Toshkent: “Sharq”, 2019. – B. 32.
5. Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ходисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. Тошкент: “ФАН”, 2006. – С. 24.
6. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Тошкент: Фан. 1978. – б. 43 – 44.